



TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK QOBILIYATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Dildora Turgunovna Pulatova

Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi kafedra mudiri,

Zoxida Sharabidinovna Tursinova

A.Avloniy nomidagi

milliy tadqiqot-instituti tayanch doktoranti

E-mail: zokhida87@mail.ru

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8133467>

ARTICLE INFO

Received: 28th June 2023

Accepted: 05th July 2023

Online: 11th July 2023

KEY WORDS

Ta'lim sifatini oshirish,
o'qituvchi qobiliyati, pedagogik
kompetensiya, malakaviy
attestatsiya, o'z ustida ishlash.

ABSTRACT

ushbu maqola tadqiqot mavzusi bo'lmish ta'lim sifatini oshirish, bunda o'qituvchilarni o'rni, pedagogik mahorat (kompetensiya) tushunchalari yoritilgan. Ustoz-muallimlardagi kasbiy kompetensiyani oshirish hamda uni baholash uchun yetralicha shart-sharoit, muhitnig mavjudligi muhim omil sifatida ko'rsatilgan.

Maktabda sifatni boshqarish inson va birinchi navbatda o'qituvchi bilan ishlashdan boshlanib, kadrlar bilan ishlash, ularning kasbiy saviyasini oshirish bilan yakunlanadi. Boshqa yo'llar yo'q ... (Yu.A. Konarjevskiy)

Ta'lim sifatini oshirish hamda rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar davlat siyosatining amaliy natijasi sifatida xizmat qilishini guvohi bulmoqdamiz. Ta'limda innovatsion jarayonlarning jadallashuvi uning yangilanishi va natijadorligini ta'minlaydi. Bu jarayon samarasi boshqaruvda yaqqol kuzatiladi. Xususan umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyati samaradorligini oshirishda, birinchi o'rinda pedagog kadrlarni, hususan, ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatini to'g'ri baholash va ularni rag'batlantirishni takomillashtirish muhimdir.

Hozirgi vaqtda ta'lim sifati mamlakat raqobatbardoshligining asosiy omili hisoblanadi. Ayrim olimlar axborot inqilobining hozirgi sharoitida mamlakatning hudud jihatidan kattaligi, uning boy tabiiy resurslarga egaligi, katta miqdordagi moliyaviy kapitalning mavjudligi uni kuchli davlat degan tushunchani bermasligini ta'kidlamogdalar. Ularning fikriga ko'ra, eng muhimi, ta'lim darajasi va jamiyat tomonidan to'plangan bilim miqdoriga borib taqalmoqda. Qolaversa, bilimlar tez eskiradi, uning o'rnini yangi bilim egallaydi va bu jarayon cheksiz takrorlanadi. Binobarin, insonlar zamonaviy talablarga javob berish uchun butun umri davomida izlanishi, o'rganishi hamda o'z ustida ishlashi kerak. **(Baytanayeva B.)**

O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ko'plab islohotlar kadrlar tayyorlash sohasidagi ta'lim turlari o'rtasidagi aloqa va uzluksizlikdagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Hozirgi vaqtda kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat siyosatida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, ehtiyoj va talablarini to'liq o'rganmaslik, kadrlar ta'minoti va kadrlar ta'minotini chuqur o'rganish natijasida hududlar bo'yicha kadrlar taqsimotining



nomutanosibligi bilan bog'liq kamchiliklar mavjud. Chunki ayrim hududlarda pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yillar davomida qondirilmayapti. Yuqori intellektual salohiyatga ega mamlakatlar tajribasidan ko'rinib turibdiki, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida chambarchas bog'liqlik yo'lga qo'yilsa, bu sohada malakali kadrlar tayyorlash, ularning bandligini ta'minlash, mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. iqtisodiyot. Xususan, uzluksiz ta'limni rivojlantirishning yangi mexanizmlarini yaratish bugungi globallashuv jarayonlarining hayotiy talabiga aylanib, o'z navbatida ta'lim sifatini oshirish va uni modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limini tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakl va usullarini joriy etish maqsadida davlatimiz raxbari tomonidan bir qator yangi qaror, farmon va farmoyishlar ishlab chiqildi. Jumladan, 2022-yil 11-maydagi 2022-2026-yillarda "Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston respublikasi Prezidentining 134- son Farmoni, 2018-yil 5 – sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqarishning yangi prinsiplarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 3931-son Qarori, 2023-yil 26-may sanasidagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF- 79- farmoni hamda boshqa me'yoriy hujjatlar buning yaqqol isbotidir. Ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy-tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Mamlakatimizda albatta mustaqillik yillarida ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash va ta'lim sifatini oshirish sohasida ilmiy izlanishlarni falsafiy, siyosiy, sotsiologik, tarixiylik nuqtai-nazaridan M.Quronov, R.Mavlonova, O.To'raeva, N.Toxtaxodjaeva, D.Abduraximova, M.Jumaev va boshqa shu kabi olimlarning qator ilmiy asarlari va maqolalarini e'tirof etish lozim. Mazkur mutaxassislar ta'lim-tarbiya asoslarini ham nazariy ham amaliy jihatdan o'rgangan.

MDH va xorij olimlaridan M. Mirsolieva, M.Pardaeva, A.Asqarov, M.Yuldashev, M. Vaxobov, G. Karimova, N. Azizxo'jaeva, N.V.Kuz'mina, I. Zimnyaya, Bardakci, M. & Unaldi, Simon Berg, R. Hasanova, Z. Kireeva va boshqa shu kabi olimlarning qator ilmiy asarlari va maqolalarida ta'lim sifatini oshirishda pedagoglarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish xamda rivojlantirish masalalari, pedagoglarning kasbiy kompetentligini hamda o'quv-tarbiya ishlarini va baholash tizimini takomillashtirish hamda o'qituvchilarni sertifikatlashtirish masalalari ko'rib, tahlil qilingan.

Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning (maktab ingliz tili o'qituvchilari) pedagogik qobiliyatini baholash mexanizmlarini aniqlash, nazariy asoslash, eksperimental tekshirish orqali baholashga doir qo'shimcha takliflar ishlab chiqish tadqiqot ishining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Undan tashqari:

- maktablarda faoliyat yuritayotgan ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik layoqatini baholash mexanizmini tizimli tahlil qilish;
- pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qiluvchi boshqaruv jarayonini tizimlashtirish;



- ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan hamda o'qituvchilarni kasbiy maxorati va layoqatini baholashni samarali, adolatli va xolis mexanizmini takomillashtirish;
- o'qituvchilarni kasbiy maxorati va layoqatini baholashning samarali mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish ham asosiy vazifalar ro'yxatiga kiritilgan.

Pedagog kadrlarni, xususan, ingliz tili o'qituvchilarini, pedagogik layoqatini (kasbiy kompetentsiyasini) baholashni takomillashtirish jarayoni tadqiqot mavzusini obyekt sifatida ko'rib chiqilsa, umumiy o'rta ta'lim maktablari ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik layoqatini baholash jarayonlarini boshqarish tadqiqotning predmeti sifatida gavdalanadi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini baholashda taklif qilinadigan usul, yondashuv va nazariy ma'lumotlarning tasdiqlangan, ijobiy natijalar ko'rsatgan usul va manbalardan olinganligi, amalga oshirilgan taxlil va tajriba-sinov ishlarining natijalari statistik metodlarga asoslanganligi hamda berilgan taklif, tavsiya va xulosalarning tegishli hukumat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

L.M.Mitining ta'kidlashicha, "pedagogik kompetentsiya bilimlar, qobiliyatlar, ko'nikmalar, shuningdek, ularni faoliyatda, muloqotda, shaxsning rivojlanishida (o'zini o'zi rivojlantirish) amalga oshirish usullarini o'z ichiga oladi". L. M. Mitina o'qituvchining pedagogik kompetensiyasi tarkibida ikkita quyi tuzilmani ajratib ko'rsatadi: faollik (bilim, ko'nikma, malaka va pedagogik faoliyatni amalga oshirish usullari) va kommunikativ bilim, ko'nikma, malaka va pedagogik muloqotni amalga oshirish usullari. V. M. Shepel kompetentsiya tushunchasini bilim, ko'nikma, tajriba, bilimlardan foydalanishga nazariy va amaliy tayyorgarlikni o'z ichiga oluvchi jarayon sifatida ta'riflaydi. P.V.Simonov bu tayyorlikning mazmunini oshkor qilmasdan, muammolarni mahorat bilan hal qilishga potentsial tayyorlik haqida gapiradi. M. A. Choshanov, asosan, kompetensiya (bilim)ning mazmuniy komponenti va protsessual komponenti (ko'nikma)ga ishora qiladi. V.Landsher kompetentsiyani chuqur bilim, vazifani adekvat bajarish holati, faoliyatni amalda bajarish qobiliyati deb tushunadi. (Bukreyeva I.)

Kompetensiya tushunchasiga berilgan yuqoridagi ta'riflar, pedagogdan nafaqat o'z kasbiningina mohir ustasi, bilim egasi, balkim, o'quvchilar bilan muloqot texnikalari, usullari, eng asosiysi esa, o'z ustida ishlashda davom etish, to'xtamaslikni ham nazarda tutishini anglash mumkin.

Pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini baholash ta'lim sifatini oshirishda qanday o'rin egallaydi? Nima uchun pedagogning mahorati ta'lim muassasasining nufuzi, reytingiga ta'sir qiladi? Shu kabi savollar, tadqiqotimizning asl negizida ko'rib chiqiladigan masalalardir. "Pedagoglarning kasb standartlari"da "pedagogga ta'limni qayta shakllantiruvchi kalit siymo", degan ta'rif berilgan. Hozirgi shiddat bilan o'zgarib boruvchi dunyoda o'qituvchining eng muhim vazifasi sifatida o'quvchida ilm olish istagini uyg'otish va bu jarayonni sevishtirish o'rgatish masalasi ham turadi. Globallashtirish jarayoni, turli xil g'oya va aqidalar yosh avlodni qaysi biri to'g'ri yo'l ekanligini anglashi uchun mukammal bilimga muhtoj, buni esa, o'ta-onadan tashqari, maktabda o'qituvchi bera oladi. Bu jarayonda o'quvchi ichki kechinmalariyu-, hissiyotlari, ularni jilovlay olish va kerakli payta ishlatishni o'rgatish, eng muhimi esa bu o'quvchilarni tushuna olish masalalarini ham o'qituvchining zimmasidadir. Shunday ekan, pedagogik mahorat, qobiliyat, kompetensiyani rivojlantirish maktablarda faoliyat yurituvchi



barcha fan o'qituvchilarining asosiy vazifalaridandir. Bu ko'rsatkich va kompetensiyalarni rivojlantirish, o'z ustida muntazam ishlash o'qituvchining vazifasi bo'lsa, bularning bariga sharoit yaratib berish maktab hamda yetakchi tashkilotlarning zimmasidagi vazifalardandir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'lim sifatini oshirishda pedagoglarning kasbiy layoqatini baholashdan ko'zlangan maqsad – pedagog kadrlarni malakasini oshirishga, o'z ustida ishlashga, pedagog xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish va bun jarayonga obyektib tayyorgarlik ko'rish, fanlar doirasidagi seminar-treninglar, vebinarlar, konferensiya hamda master-klasslarda ishtirokini ta'minlash, zamonaviy ped texnologiyalarga ega bo'lish, innovation ishlarini ommalashtirish masalalari turadi. Taniqli pedagog K.D. Ushinskiyning fikri bilan hulosalamoqchiman, "Ta'lim va tarbiya masalasida yoki maktabnig har qanday ishida o'qituvchini unutadigan bo'lsak, hech narsani yaxshilab bo'lmaydi. Ustoz toki o'qib-o'rganar ekan – tirikdir. O'qish va o'rganish to'xtar ekan, demak o'qituvchilik ham tugaydi". Farzandlari sog'lom hamda yetuk yurt farzandlarini tarbiyalashda ustozlarimizning pedagogik mahoratini oshirmoq, ta'lim sifatini oshirishda muhim omil demak.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmoni.
4. Л.О.Викторовна, "Квалиметрический мониторинг профессионального мастерства учителя". (Автореферат, 13.00.08). Краснодар 2020.
5. А.А. Марголис, "Оценка квалификации учителя: обзор и анализ лучших зарубежных практик". Психологическая наука и образование. 2019. Т. 24.№1.
6. Л.Х. Мишхожева, Развитие профессиональной компетенции педагога как фактор повышения качества образования в условиях реализации ФГОС. Евразийский научный журнал. Россия. 2021